

**KICHIK MAKTAB YOSH DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH**

*Termiz Davlat Pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lif fakulteti boshlang'ich*

*ta'lif talabalari*

*Mengziyoyeva Madina Ismoil qizi ,*

*Shopo'latova Muxlisa O'ktam qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolaning psixikasida kechayotgan o'zgarishlar, uni maktab yoshiga tayyorlash va o'quv jarayonlariga bo'lgan qiziqishini orttirish borasida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kichik maktab yoshi, bolalar psixologiyasi, intellekt, krizis, ta'lif

Odatda psixologik adabiyotlarda keltirilishicha kichik maktab yosh davri 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, lekin bu yosh davrga ajratish prinsipi qat'iy va mutlaq degan fikr emas, albatta. Chunki, xalq ta'limi tizimida yuz beradigan ayrim o'zgarishlar bunga u yoki bu tarzda o'z ta'sirini o'tkazadi. Jumladan, bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanayotgan paytdan boshlab tayyorgarlik ko'ra boradi, buning uchun u, dastavval ta'lim tarbiya tomonidan o'quvchi shaxsi oldiga qo'yiladigan turli mazmundagi talablar bilan tanishadi, undan tashqari u fan asoslarini egallash uchun ham biologic jismoniy, ham psixologik jihatdan qariyb yetilgan, jismoniy va aqliy mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bolaning maktabda o'qishga tayyorligi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

I-Shaxsiy tayyorgarlik. Motivatsion sohaning rivojlanganlik darajasi. Bilishga qiziqishning mavjudligi. Ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zining maxsus o'rni bolishiga intilish, muhim baholanadigan faoliyatni bajarish ya'nini o'quvchi bo'lish.

II-Intellektual tayyorgarlik. Tevarak-atrofda mo'ljal ola bilish, bilimlar zaxirasining mavjudligi. Idrok va ko'rgazmali-obrazl tafakkurning ma'lum darajada rivojlanganligi. Umumlashtirish darajasi — narsa va hodisalarini farqlash va umumlashtira olish ko'nikmasi. Nutqining ma'lum darajada rivojlanganligi; ko'pincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin, lekin so'z boyligi, ma'lum xatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi.

III-Harakat tayyorgarligi;

— mayda motorika;

— katta harakatlarni amalga oshirish (qo'l, oyoq, tana).

IV-O'quv faoliyatiga tayyorgarlik;

— kattalarni diqqat bilan eshita olish va uning ko'rsatmalarini aniq bajarish;

—topshiriqni mustaqil bajarish;

— chalg'ituvchi omillarga e'tibor bermasdan topshiriqni bajarishga kirishish.

Birinchi bor maktabga kelgan bola hali o'zini to'liq anglashi va o'z hatti-harakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o'qituvchigina bolaga me'yorlar qo'yishi, ularning hatti-harakatlarini baholashi, o'z xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlang'ich sinfda ofquvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi talablar va shartlarni qabul qiladilar, shuningdek, ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat qiladilar.

## VOLUME-2, ISSUE-4

Yuqoridagi barcha muammolarni faqat har tomonlama hal qilish mumkin, bu bolaga ta'lim va bilish jarayonida diqqatni tofg'ri joylashtirishga yordam beradi, uni ta'limgagini har qanday muvaffaqiyatga ragfbatlantiradi, mакtabdagi xatti-harakatlarning aniq intizomiy asosini shakllantiradi.

Katta bog'cha yoshidagi bolalar ko'pincha, maktabga o'qish uchun o'zlarida ehtiyoj sezishadi, ammo bu ehtiyoj turlicha namoyon bo'ladi. "Menga chiroyli forma, daftar, ruchkalar sotib olib berishadi", "Maktabda do'stlarim ko'p bo'ladi, ular bilan o'ynayman, maktabda uxlatischmaydi". Bunday motivlarni ota-onalar ko'pincha bolalarda maktabga nisbatan qiziqishni ottirish uchun ishlatishadi, bu kabi maktabning tashqi ramzları shubhasiz bolani qiziqishini ottiradi, biroq, bu uning maktabda yaxshi o'qishi uchun asos bo'la olmaydi. Motivatsion tayyorlashga esa "Men otamga o'xshashim uchun yaxshi o'qishim kerak", "Maktabda eng a'lochi o'quvchi bo'lishim kerak" kabilalar misol bo'ladi.

Biz ko'p hollarda bolaning o'z fikrini erkin bayon eta olmasligi, o'z fikri to'g'ri yoki noto'g'riliги borasida uzoq muddat o'yashi, kattaroq bo'lgan jamoa oldida o'zining fikrini tushuntira olmasligini kuzatamiz.

Kichik mакtab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va xulq-atvoridagi o'mni nihoyatda katta. Bu davrda axloqiy hatti-harakat qoidalari o'zlashtiriladi, shaxsning ijtimoiy yo'naliishi tarkib topa boshlaydi. Ushbu sifatlarning shakllanishi bolada bilish jarayonlarining faolligi bilan bog'liqdir.

Idrok. Kichik mакtab yoshidagi bolalar idrokining o'tkirligi sofligi bilan farq qiladilar. O'quvchilarning idroki o'ziga xos bilimga tomoshabin tariqasida berilganlik bilan farq qiladi.

Diqqat. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar diqqatining asosiy hususiyatlari ixtiyoriy zaifligidadir. Kichik mакtab yoshida diqqatni iroda kuchi bilan moslash va uni boshqarish imkoniyati cheklangan bo'ladi.

Xotira. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarda xotira ta'limining ta'siri bilan ikki yo'naliishda rivojlanadi. So'z mantiq xotirasining va mahnosiga tushunib esda olib qolishning rolg'i va uning salmog'i kuchayadi, tartibga solish imkoniyatlariga bo'ladi. Birinchi signal sistemasining faoliyatining nisbatan ustunligi tufayli kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarda so'z mantiq xotirasi deb atalgan xotiraga qaraganda ko'rgazmali-obrazli xotira ko'proq rivojlangan bo'ladi.

Xayol. Xayol muhim psixik bilish jarayonlaridan biridir. Xayolning faoliyatsiz o'qituvchi gapi rayotgan va darslarda yozilgan narsalarning tasavvur qilishni hamda ko'rgazmali obrazlar bilan ishlashni bilmay turib, hech qanday o'quv predmetni chinakkam o'zlashtirishi mumkin emas. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchining xayoli uning o'quv faoliyatining ta'siri va talablari bilan tarkib topadi. Shuning bilan bir qatorda bevosita ta'surotlar (muzey, vistavkalarning borib ko'rish, kinokartinalarni ko'rish, ekskursiyalarga borish, mакtab yer uchastkasida ishslash va boshqalar) ham xayolni rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda kichik mакtab yoshida bolada ko'pgina o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'quv faoliyati ko'nikmalarining shakllanishi, o'z-o'zini boshqarish, dunyoni bilish munosabati shakllanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Bola o'z xulq-atvorini boshqara boshlaydi. Uyda va jamoat joylarida o'zini qanday tutish kerakligi haqida xulq-atvor normalarini aniq tushunadi, kattalar va tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatda o'z emotsiyalarini boshqara oladi. Xulq-atvor normalari o'zining ichki talabiga aylanadi, unda uyatchanlik hislari paydo bo'ladi. Lekin shunga qaramay kichik mакtab yoshidagi bola uchun axloqiy jihatdan barqaror emaslik, munosabatlar va kechinmalarning doimiy emasligi xosdir.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1-Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Z.T.NISHANOVA, N.G.KAJVQLOVA, D.U.ABDULLAYEVA, M.X.XOLNAZAROVA «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti TOSHKENT - 2018

2-Ontogenetik psixologiyasi E,G'oziyev, Toshkent "NIF MSH" 2020

3-Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi.«Pedagogika va psixologiya» (ilmiy ommabop seriya).- T., Nizomiy nomidagi TDPU, 1999/1.

